



"DEVONU LUGATIT TURK" AS A HISTORICAL SOURCE IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKMEN CLANS OF THE ZARAFSHAN OASIS

Anvar Shukhratovich Umarov

Doctoral student (PhD)

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

Samarkand, Uzbekistan

E-mail: komarovanvar88@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: "Devonu lugotit Turk", Oguz-Turk (Oguz-Turkman), Chigil, Oguz, Turk, Yagmo, "maternal birth", "Tamga".

Received: 16.07.24

Accepted: 18.07.24

Published: 20.07.24

Abstract: In this article, when studying the history of the Turkmen clans of the Zarafshan oasis, the Turmen clans, their names, geography of distribution, language and ethnic history of clan communities are considered in the work of Mahmud Kashkari entitled "Devonu Lugotit Turk".

ZARAFSHON VOHASI TURKMAN URUG'LAR TARIXINI O'RGANILISHIDA "DEVONU LUG'OTIT TURK" ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA

Anvar Shuxratovich Umarov

Doktorant (PhD)

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

E-mail: komarovanvar88@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. "Devonu lug'otit turk", o'g'uz-turk (o'g'uz-turkman), chigil, o'g'uz, turk, yag'mo, "ona urug'lar", "Tamg'a".

Annotatsiya: Zarafshon vohasi turkman urug'lar tarixini o'rganilishida Maxmud Kashqariyning "Devonu lug'otit turk" nomli asarida keltirilgan turkiy urug'lar, ularning nomlari, tarqalish geografiyasi, urug' jamoalar tili va etnik tarixi masalalari to'g'risida so'z boradi.

«ДЕВОНУ ЛУГАТИТ ТЮРК» КАК ИСТОРИЧЕСКИЙ ИСТОЧНИК В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ТУРКМЕНСКИХ РОДОВ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА

Анвар Шухратович Умаров

Докторант (PhD)

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

E-mail: komarovanvar88@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Девону лугъотит тюрк», Огуз-Тюрк (Огуз-Туркман), Чигил, Огуз, Тюрк, Ягмо, «материнские роды», «Тамга».

Аннотация: В данной статье При изучении истории тюркских родов Заравшанского оазиса тюркмен роды, их названия, география распространения, язык и этническая история родовых общин рассматриваются в труде Махмуда Кашкари под названием «Девону лугъотит тюрк».

KIRISH

Zarafshon vodiysi o'zining tabiiy-geografik o'rniga ko'ra, nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyo mintaqasining markaziy qismini tashkil etadi. Bu tabiiy geografik joylashuv mintaqada turli madaniyatlarning o'zaro qorishuvi, turli xalq va elatlarning turli tarixiy bosqichlarda mintaqaga kirib kelib, muqim o'rnashib qolishiga xam ta'sir o'tkazgan. Xozirda voxa axolisining ko'p millat va elatlardan tashkil topishining murakkab va qiziqarli tarixi mavjud. Tarixan voxada ko'p sonli o'zbek urug'lari istiqomat qilib keladi. Shulardan biri turkman qabilalari xisoblanadi. Voxaning Samarqand, Buxoro, Navoiy viloyatlarida turkman urug'lari yashab kelayotgan o'nlab axoli manzilgoxlarini keltirib o'tish mumkin. Mintaqaga turkman urug'iga mansub axolining kirib kelishi ming yildan oshiq tarixga ega. Bu uruglarining asosini o'g'uz qabilalari tashkil etgan. O'nlab urug'lardan tashkil topgan o'g'uzlar esa ko'proq cho'l sharoitida chorvachilikning yilqichilik yunalishi bilan bevosita shug'ullanganliklari bois, ularning turmush tarzi tipik ko'chmanchi xarakterga ega edi. Maxmud Kashqariy uzing "Devonu lug'otit turk" (Комшарий. М., 1960. 6-64-69) nomli asarida 24 o'g'uz qabilasi to'g'risida ma'lumot bergan.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, «Turkman» nomi dastlab, Sirdaryoning quyi oqimlarida ilk o'rta asrlardan e'tiboran Yangikent shaxri tarkib topib, IX-X asrlarda u yerda o'troqlashgan o'g'uzlar makon topgan edilar (K.Шониёзов, 2001. 226-227 бет.).

Markaziy Osiyo tarixida siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblari ko'p bo'lgan. Ularning nomlari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalar hozirgi kunda butun dunyoga ma'lum.

Zarafshon vohasida tarixiy yozma manbalar orasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining ahamiyati alohida qiymatga egadir.

"Devonu lug'otit turk" asarida o'rta asr qabilalari va ularning urug'lari tarqalish o'rni, o'ziga xos tili kabilar haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Qomusiy olim o'z asarida o'sha davrlardagi qabilalar birlashmalari, ittifoqlari, urug'larining o'zaro muomalasida o'z shevalari, tillaridan tashqari yana umumtil yoki adabiy til ham mavjud ekanligini aniq dalillar orqali talqin etgan. Xuddi shu adabiy tilga asos bo'lgan qabila va urug'larni

nomma-nom sanab, ular haqida aniq ma'lumotlar bergan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari Rimdan Chin-Mochingacha shunchalik keng va katta hududlarda yashovchi turkiy qabila va urug'lar nomi haqida ma'lumot berishi bilan birgalikda, shuningdek, qadimgi Zarafshon vodiisi aholisining tarkibini aniqlashda ham muhim ahamiyatga ega. Olim bergan ma'lumotlardan bu umumtilning shakllanishida uch guruh qabila va urug'lar asos bo'lganligini anglash mumkin:

I-guruh qabilalarga sug'dak, kanjak, arg'u, tubut, tangut, xutan, uyg'ur kabilar kiritilgan. Ular faqat shaharlarda yashashgan. Ularning o'z tillari (shevalari), yozuvlari ham bo'lgan.

II-guruhdagi qabilalarga jumul, qay, yabaqu, totor, basmil kabilar kiritilgan. Bu qabilalar asosan dashtlarda yashaganlar.

III-guruhdagi qabilalarga qirg'iz, qipchoq, o'g'uz, tuxsi, yag'mo, chigil, ig'roq, yaruq, qarluq, qangli kabilar kiritilgan. Ular faqat turkchada so'zlashganlar, yamak va boshg'irtlar ham bularga yaqindir. Shu kabi Rimgacha cho'zilgan bulg'ar, suvar, bajanaklar tili turkcha bo'lib, ularda ayrim so'zlar oxiri qisqartirib qo'llanilgan. Uchinchi guruhdagi qabilalar ham sahro(dasht)larda, shuningdek, shaharlarda istiqomat qilganlar.

Devonda bu uch guruh qabilalar va ularning o'ziga xos til (dialekt va sheva) xususiyatlari misollar bilan tahlil qilingan. Aslida, Mahmud Koshg'ariy tomonidan fikr yuritilgan umumturkiy til o'sha davrlardayoq shakllangan eski o'zbek adabiy tilining ilk ko'rinishidir. Chunki olim sanab o'tgan qabilalar va ularning lahjalari o'zbek xalqining dialekt va shevalariga deyarli mos keladi.

Har holda, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ajdodlarimizning shajarasi haqida muhim ma'lumot mavjud. Unda 70 dan ziyod qabila va urug' nomlari qayd etilgan. Xususan, bu shajara o'ziga xos tartibda berilgan: avval turklarining 20 ta katta qabilalari, hamda 22 ta o'g'uz-turklari (o'g'uz-turkman) shajaralari va yo'l-yo'lakay yana 30 dan ortiq qabilalar tarmoq-urug'lari va qavmlar nomlari izohlangan. Bular bayanak (bajanak), qifchaq, o'g'uz, yamak, boshg'irt, basmil, qay, yabaqu, tatar, qirqiz, chigil, tuxsi, yag'mo, ig'raq, yaruq (jaruq), jumul, uyg'ur, tangut, xitoy (chin), tavg'aj (mochin)" kabi katta qabilalar sanaladi. Har bir qabilaning allaqancha urug'lari bo'lgan". Mahmud Koshg'ariy tomonidan qabila, qavm, urug' sifatida yuqorida qayd etilgan ma'lumot bilan birlikda, yana bir qancha etnik nomlarni devonni yo'l-yo'lakay varaqlaganimizda ko'pgina sahifalarida uchratdik. Bular quyidagicha: chigil, o'g'uz, turk, yag'mo, tuxsi, sug'dak (sug'd), arg'u, xo'tan, tubut, tangut, bulg'or, suvar, tajik, arab, xitoy (chin, mosin), qiniq, qayig', bayundur, ifa (iva, yiva), ezgish (ekzish) och/o'ch/uch salg'ur (solg'ur), afshar, begtili, bukduz (buktuz), bayat (boyot), yozg'ir, aymur (eymur), aramut, qorabuluq, olquabuluq, igdar, uragir (urakir-yuragir), yamak, tutirqa (to'tirqa), ulayndlug' (ulayundlug'), tug'ar (to'gar), elka, juvaldor, japni, jarluqlug' (jarlug'luq), jaruqlug' (jarug'luq), qirqiz, qarluq, chik, bulaq, kuchat, kujo, xalach, tot(tat), tavg'ach, uyg'ur, turkman, totor, bulaq,

charuq, od (o'z), tarbin, tot, ug'roq, sug'dak, banak, bayanak (bajanak, bajang), yabaqu, ug'roq, qoy, jumul, basmil, o'zuz, yamoq qanjak kabilar shular jumlasidandir. Umuman, juda ko'p etnik nomlar devonning har yerida yo'l-yo'lakay tilga olinib, ular haqida qisqacha izohlar ham berilgan, ba'zilar esa so'zlarning lisoniy tahlili jarayonida qayta-qayta tilga olingan.

Hatto, devonda o'sha davrda mavjud bo'lgan qabilalarning yashash va tarqalish yerlari belgilanib, ularning geografik xaritasi ham tavsiya etilgan. Bu geografik xarita ham "Devonu lug'otit turk" asarining yozilish jarayonida Mahmud Koshg'ariy tomonidan tuzilib, devonning alohida sahifasida berilgan. Ushbu fikrni muallifning o'zi yozgan ma'lumoti ham tasdiqlaydi: "Bu qabilalarning turar joylarini doira ichida ko'rsatdim (Кoшгaрий., 1960). Olim devonda maxsus tahlil etilgan urug'larni "ona urug'lar", deb atagan va ularni o'zi tuzgan geografik xaritasida ham ko'rsatgan. U devondagi "Turk qabilalari va qabilalarning bayoni haqida" hamda "Turk tilining xususiyatlari haqida", "Tilda va lahjalarda bo'lgan farqlar haqida" sarlavhali sahifalarida o'sha davrlarda katta va nufuzli bo'lgan urug'-qabilalar, qavm-elatlarni birma-bir tilga olib, ularning yashash hududlari va tillari, ulardagi lahjaviy farqlargacha, hatto, etnik-etnografik jihatlari bo'yicha ham muhim ma'lumotlarni bergan.

Chunonchi, faqat o'g'uz turkmanlarining mayda urug'larini ham, ularning mollariga qo'yiladigan belgilari tilga olinadi.

O'g'uz-turklarning bir qabilasi-O'g'uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug'dir; ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg'alari bordir, urug'larni shu tamg'alarga qarab ayiradilar (Абдурахмонов F., 1967. 246-6).

Turkman xalqlari o'z chorva mollarini boshqa birovnikidan farqlashni osonlashtirish uchun hayvonlarga umumiy va oilaviy xarakterga ega bo'lgan turli xil belgilar qo'yilgan. Shunday qilib, maxsus qoliplar yordamida tegishli tamga belgisi (tag'ma) tuyalar yordamida qizdirilgan temir bosilgan. Otlar va qoramollar odatda tamg'alanmagan. Chorvachilikning asosiy qismini tashkil etuvchi qo'y va echkilarga kelsak, terisini kuydirib tamg'a qo'ygan, yomudlar esa bu bilan shug'ullanmagan (A, 1995.C-262). Aytish kerakki, tamg'a ba'zi hollarda nafaqat o'ziga xos, balki himoya belgisi rolini ham o'ynagan (Демидов С.М., 1975.C.32.).

Shu o'rinda tamg'a so'ziga tarif berish joyizdir. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk": asarida keltirilishicha bir o'rinda "Tamg'a" I: 1. dengiz, ko'l, va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog'i. 2. Daryoda qayiq to'xtaydigan joy. "Tamg'a" II: tamg'a, muhr. Tamg'aliq-kichgina obdasta, bir kishiga maxsus dasturxon. Asli tamg'alig', yani muxrli demakdir.

Bizningcha, turkiy xalqlarning o'g'uz nomli yirik qabilasining shajarasi maxsus qayd etilganining boisi shundaki, Turk hoqonligi davridagidek, Koshg'ariy yashagan davrlarda ham o'g'uzlarning mavqei turkiy qabilalar orasida ancha yuqori bo'lgan, shu kabi Qoraxoniylar davlati muhitida qarluqlar qatorida o'ziga xos e'tiborga ega bo'lgan. Devondagi izohlar qismida

qarluqlarni o'g'uzlarga yaqin avlodlardan deb qaraladi (Кошғарий. М., 1960. 6-479-499). Bu shajarada 22 o'g'uz-turkmanlarining urug'lari va ularning tamg'alari birma-bir yozib ko'rsatilishining boisi shunda. Shu kabi qipchoq va uyg'ur, chigil, yag'mo kabi qabilalarning mavqei ham katta bo'lgan. Shuning uchun ular haqida ham devonning qo'pgina sahifalarida maxsus fikrlar, izohlar berilgan.

XULOSA

Devondagi izohlaridan ma'lum bo'lishicha, Mahmud Koshg'ariy qabilalarning tillarini, ular orasidagi yaqinlik va o'xshashliklarga muvofiq ikki guruhga ajratadi. Ularning birini o'g'uz, ikkinchisini chigil yoki turk guruhiga xos deb ataydi. Ikki tilning biriga xos deganda ana shu ikki guruhning birini, ya'ni o'g'uz yoki turkni ko'zda tutgan.

O'zbek xalqi tarixini, madaniyatini keng va xolisona o'rganish kishilarimizda, chunonchi, yoshlarimizda o'z millati, Vataniga bo'lgan ixlosini yanada oshiradi, ularda turli tashqi ta'sirlar, g'ayrimilliy qarashlardan xoli bo'lish qobiliyatini shakllantiradi. Zero, o'zbek xalqi eng qadimiy elat-millatlardan biri bo'lib, ma'naviy madaniyatlari ildizining teranligi sababli asrlar davomida tashqi tajovuzlarga dosh beribgina qolmay, dunyoning juda ko'p xalqlariga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Chunki o'zbek urug'larini o'rganish xalqimiz tarixini va uning tili tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонов Ғ., С. Муталлибовлар. Девони луғотут турк. Индекс-луғат. Тошкент. 1967.
2. Демидов С.М. Магтымы (Историко этнографический этюд) // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. М., 1975.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девони луғотут турк I том. Нашрга таёрловчи. Салих Муталлибов. Тошкент 1960 й.
4. Оразов А. Скотоводство у туркмен в XIX – начале XX в. Ашгабат, 1995.
5. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент-2001. 226-227 бетлар.